

## ABU NASR FAROBIYNING ILMIIY MEROSI VA UNING ZAMONAVIY TAFAKKUR SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Mengaliyeva Zaynura Ikrom qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Ikkinchi muallim" deb nom qozongan buyuk bobomiz Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi va uning bugungi kungi fikrlash tarzimizga ko'rsatgan ta'siri haqida so'z boradi. Olimning mantiq, falsafa va odob-axloq haqidagi qarashlari hozirgi zamon ilmi bilan solishtirilgan. Shuningdek, Farobiyning komil inson va adolatli jamiyat haqidagi orzulari bugungi yoshlar tarbiyasida qanchalik muhimligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Abu Nasr Farobiy, ilmiy meros, zamonaviy fikrlash, mantiq ilmi, baxt-saodat, axloq qoidalari, ilm-fan kaliti, Sharq uyg'onish davri.

**Abstract:** This article discusses the scientific heritage of Abu Nasr al-Farabi and his influence on modern thinking. The scholar's views on logic, philosophy, and ethics are compared with today's scientific standards. It also highlights the importance of Farabi's ideas about a perfect society and human values in educating the younger generation.

**Keywords:** Abu Nasr al-Farabi, scientific heritage, modern thought, logic, happiness, ethics, key to science, Eastern Renaissance.

Insoniyat tarixida shunday insonlar bo'ladiki, ularning yozganlari oradan ming yil o'tsa ham xuddi bugun yozilgandek dolzarb bo'lib turaveradi. Shunday buyuk daholardan biri — Abu Nasr Farobiy bobomizdir. Uni dunyo tanigan, "Ikkinchi ustoz" deb e'tirof etgan. Biz ko'pincha tarix darslarida u kishi haqida yuzaki o'qiymiz, lekin chuqurroq o'ylab ko'rsak, Farobiy shunchaki eski kitoblar yozgan olim emas. U hamma narsani tartibga solgan, ilm-fanning yo'nalishini belgilab bergan inson. Keling, uning merosini bittalab tahlil qilib ko'raylik.

Birinchiidan, Farobiy mantiq ilmini juda qattiq ushlagan. U mantiqni "aqlimizning o'lhovi" deb atagan. (Ya'ni, agar odamda mantiq bo'lmasa, u qanchalik ko'p o'qimasin, haqiqatni yolg'ondan ajrata olmaydi deb hisoblagan). Hozirgi kunda internetda ma'lumotlar juda ko'p, har xil yolg'on xabarlar tarqab ketgan. Mana shunday paytda Farobiy aytgan mantiq bizga kerak bo'ladi. Biz har bir ma'lumotni tahlil qilsak, mantiqan o'ylab ko'rsak, adashmaymiz. Demak, Farobiy bobomizning mantiqiy fikrlash haqidagi darslari bugun bizga "to'g'ri va noto'g'rini ajratish" uchun eng asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, u kishining jamiyat va odamlar haqidagi fikrlari juda qiziq. Farobiy "Fozil odamlar shahri" degan asarida hamma bir-biriga yordam beradigan, adolatli jamiyatni orzu qilgan. Uning fikricha, jamiyatning baxtli bo'lishi rahbarlarga bog'liq. (Agar rahbar bilimli bo'lsa va o'z xalqini sevsa, u yerda hamma baxtli yashaydi degan gapni aytgan). Bu g'oyalar hozirgi kunda biz intilayotgan adolatli jamiyat qurish tamoyillari bilan bir xil. Farobiy baxtni faqat pulda yoki boylikda ko'rmagan, balki odamlarning bilimli va ma'naviyatli bo'lishida deb bilgan. (Hozirgi til bilan aytganda, boy bo'lishdan oldin madaniyatli bo'lish kerakligini uqtirgan).

Uchinchiidan, Farobiy ta'lim-tarbiya masalasiga ham alohida to'xtalgan. U ilm olish bilan birga odobni ham o'rganish shartligini aytgan. "Tarbiyasiz berilgan ilm — insoniyatning dushmanidir" degan fikri bugun ham maktab va universitetlarimizda eng asosiy qoida hisoblanadi. (Chunki odam qanchalik aqlli bo'lmasin, agar u yomon niyatli bo'lsa, bilimni faqat zarar yetkazishga ishlatadi).

Nima uchun bu alloma men uchun muhim?

Talaba sifatida Farobiy bobomizning hayot yo'li menga juda katta motivatsiya beradi. Birinchiidan, uning bilimga bo'lgan chanqoqligi hayratlanarli. U kishi ilm olish uchun dunyoning yarmini kezib chiqqan. Hozir bizda hamma sharoit bor, telefonimizda hamma ma'lumot tayyor, lekin biz ba'zan erinamiz. Farobiy bobomiz esa hatto qiyin sharoitlarda

ham o‘qishdan to‘xtamagan. (U kishining tunda ko‘chadagi chiroqlar nurida kitob o‘qigani haqidagi hikoyalarni eslasak, hozirgi imkoniyatlarimizning qadriga ko‘proq yetamiz).

Ikkinchidan, u kishining poliglot bo‘lgani, ya’ni 70 dan ortiq tilni bilgani men uchun dars bo‘la oladi. Men xorijiy tillarni o‘rganar ekanman, har doim Farobiydan o‘rnak olaman. Til o‘rganish — bu shunchaki gaplashish emas, balki boshqa xalqlarning madaniyati va ilmini o‘rganish uchun kalit ekanligini tushunaman. Kelajakda o‘zim ham shogirdlarga dars bersam, ularga Farobiy kabi ilm va odobni baravar o‘rgatishni maqsad qildim.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi shunchaki tarixiy kitoblar emas, balki bizning bugungi hayotimiz uchun qo‘llanmadir. Uning mantiqiy fikrlash, adolatli yashash va doim bilim izlash haqidagi g‘oyalari hozirgi zamonaviy tafakkurimizning poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Biz kabi yoshlar mana shunday buyuk bobolarimizning ishlarini davom ettirishimiz va ular qoldirgan bilimlar yordamida dunyoga o‘zimizni ko‘rsatishimiz kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

M. Xayrullayev. Abu Nasr Farobiy. – Toshkent: Fan, 1993.

Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

Abu Nasr Farobiy. Fanlar tasnifi. – Toshkent: Fan, 2018.

Sh. Sirojiddinov. Sharq falsafasi va tafakkuri. – Toshkent, 2020.